

LEKSIK BIRLIKLARNI NUTQIDA TO'G'RI QO'LLASH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH METODLARI

Qarshi xalqaro universiteti o'qituvchisi

Ergasheva Gulnoz Xaydarovna

Annotatsiya : *Ushbu maqolada xalqimizning boy ma'naviy, madaniy, tarixiy merosi, milliy qadriyatlariga sodiq, ma'naviy-axloqiy barkamol avlod bo'lib etishida tilning muhim ahamiyatlari to'g'risida atroflicha fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar *millat, elatlar, urf-odatlar, ma'naviy-axloqiy, ijobiy va salbiy, ona tili.*

Til tufayli millat va elatlarning madaniyati, urf-odatlarini saqlanib qoladi. Bolalarga yoshligidan ona tilining leksik sathi, grammatik qurilishi, ilmiy me'yorlarini o'qitish barobarida millat madaniyati, urf-odati, rasm-rusumlari, tabiati va boshqa jihatlar o'rgatib borilar ekan, til va u orqali millatning yashab qolishiga erishiladi.

Bolaning xalqimizning boy ma'naviy, madaniy, tarixiy merosi, milliy qadriyatlariga sodiq, ma'naviy-axloqiy barkamol bo'lib o'sayotgani uning nutqida aks etadi. Bola ruhiyatida o'zini qurshab turgan olamning lisoniy manzarasi gavdalana boshlaydi. Tabiat hodisalari, hayvonot, o'simliklar olami, ijtimoiy hayotdagi turli voqea-hodisalar, ommaviy axborot vositalari tomonidan uzatilayotgan xabarlar, kattalar tomonidan o'qib berilgan yoki bevosita o'zi o'qiyotgan jahon va o'zbek adabiyoti, xalq og'zaki ijodi namunalarida izohtalab so'z va jumalarga duch keladi[1].

SH.Bobojonovanning "Komillikka ilk qadam" deb nomlangan o'zbek nutqidagi sharqona axloq-odob me'yorlari, ijobiy va salbiy xususiyatlarni ifodalovchi kulturemalarning sodda va qisqa izohiga bag'ishlangan o'quv izohli lug'ati foydalanuvchida axloqiy sifatlarni ifodalovchi leksik birliklarni nutqida to'g'ri qo'llash ko'nikmasini shakllantirish, muhimi ushbu sifatlarni o'zlashtirishida o'ziga xos ahamiyatga ega. O'quv lug'atchiligi mezonlariga ko'ra lug'atga milliy, madaniy, ma'naviy qadriyatlarni ifodalovchi she'rlar, maqollar, hikmatli so'zlar, rasmlar ilova qilingan:

IBOLILIK – Xotin-qizlarga xos fazilatlaridan biri bo'lib, andisha, ibo, hayo kabi o'zbekona qadriyatlarning oliy ko'rinishi.

Iboli qiz Ibodat,

Unga yor ezgu odat.

Buvisin yo'lin tutib,

Topgay baxt-u saodat.

MEHMONDO'STLIK – Mehmon kutishni yoqtiradigan, mehmonlarga hamisha eshigi ochiq va ularni hurmat-izzat qiladigan hamda qadrlaydigan kishilarga xos bo'lgan fazilat.

Mehmon kelar eshikdan,

Rizqi kelar teshikdan. (O'zbek xalq maqoli)

MEHRIBONLIK – Hamisha o'zgalarga e'tiborli, mehrli, g'amxo'r munosabatda bo'lish. Keksalarga, yoshi ulug' insonlarga, yoshlarga mehr-muhabbat ulashish. Insonlar orasida doimo mehr rishtalarining bo'lishi va o'zaro hurmat bilan munosabatda bo'lish.

SALOMLASHISH – Bu eng shirin va sehrli so'z. Ikki kishi uchrashib qolganda dastlab o'zaro muloqotga kirishish uchun ishlatiladi. Salom odatda oldin yoshi ulug' insonlarga, keyin esa tengdoshlarga "Assalomu alaykum" deb aytiladi va "Vaalaykum assalom" deb javob beriladi[2].

Til har bir millat madaniyatining o'zagidir. Tilning saqlanishi, boyib borishi, taraqqiy etishi xalq taraqqiyoti va kelajagini belgilaydi. Til xalqni birlashtiradi, tarbiyalaydi, urf-odat, an'analarini saqlaydi. Lug'atlar esa ushbu xazinani o'zida to'plab, foydalanuvchiga butunicha taqdim etadi. So'nggi yillarda "Mening birinchi lug'atim" seriyasida maktabgacha yoshdagi bolalar uchun nashr etilgan B.Bahriddinova va Z.Rahmatovalarning "Olam mening nigohimda", A.Botirovaning "Meva va sabzavotlar", Xurshida Sattorzodaning "Hayvonot olami", M.Turdiyevaning "Kiyim-kechaklar", Sh.Rahimovaning "Bayramlarimiz", N.Yuldosheva va R.Nabiyevalarning "So'zdan so'zni farqlaymiz", K.Raximovaning "Mening oilam" nomli rangli-bezakli o'quv izohli lug'at-qo'llanmalarida ham til, madaniyat, ma'naviyat mushtarakligi o'z ifodasini topganini kuzatish mumkin[3].

O'quv lug'atlarining antropotsentrik yo'naltirilganligi madaniy-ma'naviy barkamol, kommunikativ faol, jismonan va aqlan sog'lom avlodni tarbiyalash bilan bog'liq barcha zamonaviy talablarni hisobga olgan holda ularning muqobil lingvodikantik modellarini ishlab chiqishni shart qilib qo'yimoqda. Bunday lug'atlar ustida ishlash maktabgacha yoshdagi bolalar va boshlang'ich sinf o'quvchilarida:

- ona tilida, qolaversa, xorijiy tillarda muloqot madaniyatini shakllantirish, jamiyatning turli qatlamlariga ijtimoiy moslashish;

- o'z ustida muntazam ishlash jarayonida jismoniy, ma'naviy, ruhiy, intellektual va kreativ fikrlashga o'rgatish;

- umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e'tiqodli, vatanga sodiq, insonlarga mehr-oqibatli bo'lish, badiiy va san'at asarlarini tushunish ko'nikmalarini shakllantirish;

–milliy-madaniy me'yorlar, o'zini tutish, kiyinish madaniyatiga va sog'lom turmush tarziga amal qilishga o'rgatish bilan bog'liq ko'nikmalarni shakllantirishga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Баҳриддинова Б.М. Олам менинг нигоҳимда. "Тил ва адабиёт таълими" Тошкент, 2018 йил, 6-сон. Б.-31-32
- 2.Bobojonova Sh. Mening birinchi lug'atim. Komillik sari ilk qadam. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun rangli-bezakli o'quv izohli lug'at. "Nasaf", Qarshi, 2019. 42 b.
3. Bahriddinova B.M., Rahmatova Z. Mening birinchi lug'atim. Olam mening nigohimda. Rangli-bezakli o'quv lug'at. 5-7 yoshli bolalar uchun. "Nasaf", Qarshi, 2019. 56 b.;
- 4.Tursunova Y. Mening birinchi lug'atim. Rangin olam. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun rangli-bezakli o'quv izohli lug'at. "Nasaf", Qarshi, 2019. 32 b.;
- 5.Botirova A. Mening birinchi lug'atim. Meva va sabzavotlar. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun rangli-bezakli o'quv izohli lug'at. "Nasaf", Qarshi, 2019. 36 b.;
- 6.Sattorzoda X. Mening birinchi lug'atim. Hayvonot olami. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun rangli-bezakli o'quv izohli lug'at. "Nasaf", Qarshi, 2019. 52 b.;
- 7.Turdiyeva M. Mening birinchi lug'atim. Kiyim-kechaklar. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun rangli-bezakli o'quv izohli lug'at. "Nasaf", Qarshi, 2019. 31